

## OILAVIY ZO‘RAVONLIKNING HAR QANDAY KO‘RINISHIGA QARSHIMIZ!

**Kamolova Sarvinoz O‘rol qizi**

*Alfraganus universiteti “Xalqaro munosabatlar”*

*yo‘nalishi, 3-kurs talabasi*

*kamolovasarvinoz33@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada oilaviy zo‘ravonlik tushunchasi, uning turlari, sabablari va jamiyatda yuzaga keladigan salbiy oqibatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ushbu muammoga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar, davlat va nodavlat tashkilotlarining sa‘y-harakatlari, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy tahlillar keltirilgan. Maqola yakunida oilaviy zo‘ravonlikni oldini olishga doir taklif va tavsiyalar beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Oilaviy zo‘ravonlik, gender tenglik, huquqiy himoya, ayol huquqlari, jamiyat, zo‘ravonlik turlari, ijtimoiy xavf, davlat siyosati.

**Abstract:** This article analyzes the concept of domestic violence, its types, causes and negative consequences in society. It also presents measures taken to combat this problem in the legislation of the Republic of Uzbekistan, the efforts of state and non-state organizations, and comparative analyses with international experience. At the end of the article, proposals and recommendations are given for the prevention of domestic violence.

**Keywords:** Domestic violence, gender equality, legal protection, women's rights, society, types of violence, social risk, state policy.

### KIRISH

Oilaviy munosabatlar jamiyatning eng muhim ijtimoiy tuzilmasi bo‘lib, undagi muvozanat va sog‘lom muhit davlat barqarorligining asosi hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda oilada turli ko‘rinishdagi zo‘ravonliklar — jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, jinsiy — ko‘plab oilalarning totuvligiga putur yetkazmoqda. Xususan, ayollar va bolalarga nisbatan sodir etilayotgan zo‘ravonliklar nafaqat inson huquqlarining buzilishi, balki butun jamiyat salomatligiga tahdiddir.

Shu bois, bu muammoni bartaraf etish yo‘lida davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari va har bir fuqaroning hamkorligi muhim. “Zo‘ravonlik – jinoyat, sukut – rozi bo‘lish” tamoyiliga amal qilish, har qanday zo‘ravonlikka qarshi kurashish barchamizning burchimizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor”. Darvoqe, shu o‘rinda, Fitratning “Oila” asarida keltirilgan: “Biz farzandlarimizni yaxshi xulq egalari etib tarbiyalashimiz lozim, ya’ni

shunday qilishimiz lozimki, farzandlarimiz imonli, fidokor bo‘lib ulg‘ayib, o‘z bolalarini islom taraqqiyotiga muvofiq tarbiyalab, din va dindoshlarini halokat va xarobalik jarligidan qutqarsinlar. Bu matlabga erishish uchun xotinlarimiz va qizlarimiz – millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari zarur”, – degan fikrlarni qayd etish lozimdir. Oila ma’naviy jihatdan yetuk bo‘lsa, uning farovonligi, tinchligi, xotirjamligi ham mustahkam bo‘ladi. Demak, jamiyatning har tomonlama rivojlanishi oilalarning mustahkamligi, farovonligi, tinchligi va xotirjamligiga bog‘liq jarayonligi namoyon bo‘lmoqda. Oilaviy munosabatning qonuniy himoyalaniishi mamlakatimiz Konstitutsiyasida, Oila kodeksida ham o‘z ifodasini topgan. Shu bois, keyingi yillarda mamlakatimizda ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan farovon oilalarni shakllantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismonan, ruhan sog‘lom bo‘lgan farzandlarning dunyoga kelishiga qulay shartsharoitlarni yaratish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, Yangi O‘zbekiston hamda Uchinchi Renessans poydevoriga asos solinayotgan davrda oila institutini mustahkamlash, uning tinchligini, xotirjamligini hamda gender tenglikni ta’minlash sohasida amalga oshirilayotgan izchil va samarali ishlar davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Davlatimiz rahbarining “Ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish islohotlar samaradorligi hamda iqtisodiy o‘sishini ta’minlashi – amaliyotda o‘z isbotini topgan haqiqat. Jinlar tengligiga erishish mohiyatan insonga shaxs sifatida namoyon bo‘lishga halal beruvchi barcha ijtimoiy to‘siqlarni o‘rganish va bartaraf etishdan iborat”, – degan so‘zlari ham tizimli vazifalarni yanada takomillashtirgan holda o‘z vaqtida bajarish zarur ekanligidan dalolat beradi. Vaholanki, ushbu sohada hamda yo‘nalishda, shu vaqtga qadar, juda katta hamda olamshumul ishlar amalga oshirilganini ham e’tirof etish lozimdir.

Jamiyatdagi har qanday illatga qarshi kurashni oiladan boshlasakkina uni ildizi bilan quritish mumkin. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida muvofiq, oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo‘lish huquqiga ega.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida teng ekanligi belgilangan. Jinoyat kodeksining 5-moddasida fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi “jinoyat sodir etgan shaxslar jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, bir xil huquq va majburiyatlarga ega bo‘lib, qonun oldida tengdirlar” degan tahrirda bayon etilgan.

Saida Mirziyoyeva oiladagi zo‘ravonlikni jinoyat deb baholashni taklif qildi. “Oiladagi zo‘ravonlik — oilaning ichki ishi emas, bu muammo butun jamiyatga

tegishli. Ayol o'z dardi bilan yolg'iz qolib ketmasligi kerak", — dedi u. U voyaga yetmaganlar bilan jinsiy aloqa qilganlik uchun jazo kuchayishi zarurligini aytdi.

Konstitusiyaning 26-moddasida esa, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzdagi tazyiqqa duchor etilishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2019 yil 2 sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" Qonuni qabul qilindi.

**Xo'sh mazkur to'siqlar nimalardan iborat? Nega bu to'siqlar paydo bo'lmoqda yoki bartaraf etilmayapti?**

Avvalo mazkur savollarga javob topishdan oldin oiladagi zo'ravonlik nima ekanligini tushunib olishimiz lozim. Chunki yuqoridagi holatlarning barchasi aynan mazkur ijtimoiy xavfli qilmish bilan chambarchas bog'liq.

**Zo'ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan jismoniy, ruhiy, jinsiy yoki iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazish choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali ularning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxlsizligi, sha'ni, qadr-qimmatini va qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari hamda erkinliklariga tajovuz qiladigan g'ayrihuquqiy harakat (harakatsizlik).

**Jismoniy zo'ravonlik** — xotin-qizlarga nisbatan og'irligi turli darajada bo'lgan tan jarohatlari yetkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko'rsatmaslik, zo'ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish, jismoniy ta'sir o'tkazish yoki bunday ta'sir o'tkazishning o'zga choralari qo'llash bilan tahdid qilish orqali xotin-qizlarning hayoti, sog'lig'i, erkinligi hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquqlari va erkinliklariga tajovuz qiladigan zo'ravonlik shaklidir.

**Ruhiy zo'ravonlik** — xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha'nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo'ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchida o'z xavfsizligi uchun xavotir uyg'otgan, o'zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog'lig'iga zarar yetkazgan harakat (harakatsizlik) da nomoyon bo'ladi.

**Oiladagi zo'ravonlik** — bu o'zlarining yaqinlari (asosan ayollar va bolalar) ustidan hukmronlik va nazorat qilish maqsadida, odatda aynan bir shaxsga nisbatan **jismoniy** va **ruhiy zo'rlik** qilishda namoyon bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ayrim hollarda zo'ravonning jismoniy va ruhiy zo'rli natijasida xotin-qizlar tomonidan ijtimoiy xavfli qilmish sodir etishi hollari ham kuzatilmoqda.

Insonning har qanday qilimishi har doim ongli va aql-irodasi bilan sodir etiladi. Shuning uchun o'z harakatlarining ahamiyatini anglay olmagan yoki harakatlarini boshqara olmagan shaxsning harakatlari, hatto ijtimoiy-xavfli oqibatlarga olib kelgan taqdirda ham jinoyat hisoblanmaydi.

Zo'ravonlikka uchragan ayollar yengib bo'lmaydigan jismoniy kuch yoki ruhiy zo'rlik ta'siri ostida qonun bilai qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatga xavf soluvchi qilmishi va uning oqibati uchun javobgarlikka tortilishi mumkin emas.

### **Shu o'rinda jismoniy va ruhiy zo'rlik nima degan o'rinli savol tug'iladi!**

**Jismoniy zo'rlik**, deganda shaxsning boshqalarning jismoniy ta'sirida jamiyat uchun xavfli qilmishlarning amalga oshirishi tushuniladi va bunda jismoniy ta'sir uning ixtiyorini butunlay olib qo'yadi (masalan, er xotinini urib tan jarohati yetkazsa yoki haqorat qilsa, natijada xotini o'zini himoya qilish maqsadida eriga yengil, o'rtacha og'ir yoki og'ir shikast yetkazsa). Bunday holat O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 55-moddasining d) bandiga muvofiq, jabrlanuvchining zo'rlik, og'ir haqorat yoki boshqacha g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga kelgan kuchli ruhiy hayajonlanish holatida jinoyat sodir etish deb topiladi va sud tomond

O'zbekistonda xotin-qizlar va bolalarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga katta e'tibor qaratilayotgan, onalik va bolalikni himoya qilish uchun keng ko'lamli ishlar qilinayotgan bir vaqtda, mazkur sohadagi ishlar tahlili oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni yaxshilashda qator kamchilik va to'siqlar ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O'zbekiston va jahon olimlari tomonidan oilaviy zo'ravonlik masalasida turli tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan:

- O'zbekistonda Gender tenglikni ta'minlash strategiyasi doirasida o'tkazilgan monitoringlar;
- UN Women hisobotlarida O'zbekistonda 18-45 yoshli ayollarning 15 foizi hayotida kamida bir marta zo'ravonlikka duch kelgani qayd etilgan;
- I.A. Karimova, M. Nuriddinov, G. Raxmatullayeva singari olimlar bu masalani ijtimoiy, psixologik, huquqiy jihatdan o'rganganlar.

Shu o'rinda aytish kerakki, har qanday sohani takomillashtirishda xorijiy tajribani o'rganish va uni mahalliy sharoitlarimizga moslashtirgan holda samarali tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Gender tenglik ham bundan mustasno emas. "Gender bu oilaviy va boshqa huquqiy munosabatlarda erkaklar va ayollar o'rtasidagi huquqlar tengligi hamda jamiyatda va shaxsiy hayotda erkaklar va ayollarning ijtimoiy roli, mavqeyi va vazifalarini ifodalovchi tushunchadir. " Mazkur ta'rifdan kelib, aytadigan bo'lsak bizning nazarimizda gender tengligi – ijtimoiy tushuncha bo'lib, jamiyatda erkak hamda ayolga yaratilayotgan huquq va imkoniyatlarning tengligi tushuniladi. Shuning uchun xotin-qizlarimizga nisbatan tazyiq hamda zo'ravonlikning oldini olish

borasida O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish haqida"gi Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonunning maqsadi xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish lozimki, gender tenglikka erishish haqiqiy demokratik qadriyatlarning ajralmas qismi sifatida eng ustuvor maqsadlarimiz qatoriga qo'yilgan. O'zbekiston ham turli mutasaddi tuzilmalar, jamoat tashkilotlar hamda keng jamoatchilikning bu yo'nalishdagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash borasidagi xorijiy tajribasidan foydalanmoqda. Bu ayniqsa, tegishli yo'nalishda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ustida ishlashda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, xotin-qizlarning huquqiy savodxonligini oshirish yo'nalishida ham muhim vazifalar bajarilmoqda. Oilaviy zo'ravonlik – bu shaxsga, oilaga va jamiyatga qarshi qaratilgan jinoyatdir. Uni bartaraf etish uchun qonun, ma'rifat va jamoatchilik nazorati birgalikda ishlashi lozim. O'zbekistonda bu borada muhim qadamlar qo'yilmoqda, ammo bu yetarli emas. Har bir inson bu muammoga befarq bo'lmasligi kerak. Zo'ravonlikka qarshi kurashish – bu butun jamiyatning ishi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILA VA XOTIN-QIZLAR DAVLAT QO'MITASI HUZURIDAGI "OILA VA XOTIN-QIZLAR" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
2. <https://qiziriq.uz/uz/blog/e-lonlar/317>
3. <https://aniq.uz/uz/yangiliklar/oiladagi-zuravonliklarning-har-qanday-shakliga-qarshimiz>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/12/06/domestic-violence/>